

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ARIPOV JAVOXIR ABDIXAKIMOVICH

**MOLIYA TIZIMINI INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Aripov Javoxir Abdixakimovich

Moliya tizimini institutsional mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

Арипов Жавохир Абдихакимович

Совершенствование институциональных механизмов финансовой системы.... 25

Aripov Javokhir Abdikhakimovich

Improving the institutional mechanisms of the financial system..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
«O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY
ASOSLARI VA MUAMMOLARI» ILMIY-TADQIQOT MARKAZI**

ARIPOV JAVOXIR ABDIXAKIMOVICH

**MOLIYA TIZIMINI INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

The topic of doctoral dissertation (PhD) was registered under the number B2025.4.PhD/Iqt6030 at the Supreme Attestation Commission.

The dissertation has been accomplished at the Research Center "Scientific Foundations and Problems of Development of the Economy of Uzbekistan" at the Tashkent State University of Economics.

The abstract of dissertation is posted in three languages (Uzbek, Russian and English (resume)) on the website of the Scientific Council (www.tsue.uz) and on the website of «Ziyonet» informational and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific advisor:	Isaev Fakhridin Ikromovich Doctor of Economics, Professor
Official opponents:	Khudoykulov Khurshid Khurramovich Doctor of Economics, Professor Khaydarov Nizomiddin Khamroevich Doctor of Economics, Professor
Leading organization:	Kimyo International University in Tashkent


The defense of the dissertation will take place on 05 "14", 2026 at 14⁰⁰ at the meeting of the Scientific council №DSc. 03/2025.27.12.1.23.01 awarding for the scientific degrees at Tashkent State University of Economics. Address: 100066, Tashkent city, I.Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

The doctoral dissertation (PhD) can be reviewed at the Information Resource Center of Tashkent State University of Economics (registered under the number 1591). Address: 100066, Tashkent city, I.Karimov street, building 49, phone: (99871) 239-28-72; fax: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz


The abstract of dissertation sent out on "30" 04 2026
(mailing report № 41 on "30" 04 2026)



S.U. Mekhmonov
Chairman of the Scientific council for awarding scientific degrees, Doctor of Economics, Professor


U.V. Gafurov
Secretary of the Scientific council for awarding scientific degrees, Doctor of Economics, Professor

S.K. Khudoykulov
Chairman of the Scientific seminar under the scientific council for awarding scientific degrees, Doctor of Economics, Professor



KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida davlat moliyasi va moliyaviy institutlar faoliyatida hisobdorlik hamda shaffoflikni ta'minlash masalasi strategik ahamiyatga ega bo'lgan global ustuvor yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Davlat qarzlarning hajmi va moliyaviy operatsiyalarning murakkablashib borayotgani budjet va qarz majburiyatlari bo'yicha aniq hamda o'z vaqtida ma'lumotlarni oshkor qilish talabini kuchaytirmoqda. Jahon banking 2025-yildagi hisobotida "qarzlarning to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarning yetarli darajada ochiq emasligi moliyaviy xavflarni oshirishi va investitsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan"¹. Shu bilan birga, qarz majburiyatlarining murakkab instrumentlar orqali yashirin shaklda shakllanishi global moliyaviy barqarorlikka tizimli xavf tug'dirishi ta'kidlanadi. Mazkur holatlar davlat moliyasida institutsional hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish masalasining jahon miqyosida dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Xalqaro amaliyotda moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan tadqiqotlar asosan davlat moliyasini boshqarishning institutsional samaradorligini oshirish, raqamli texnologiyalar asosida budjet va moliyaviy operatsiyalarni monitoring qilish, xavflarni boshqarish va komplayens mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor yo'nalishlarda olib borilmoqda. Xususan, davlat moliyaviy ma'lumotlarining ochiqligi va ishonchligini ta'minlash, ichki nazorat va audit tizimlarining o'zaro uyg'unligini kuchaytirish, raqamlashtirilgan hisobot platformalari orqali jamoatchilik nazoratini kengaytirish hamda "Open Government" va "Open Finance" konsepsiyalarini amaliyotga joriy etishning institutsional modellari keng o'rganilmoqda. Bu yo'nalishlardagi tadqiqotlar moliya tizimida institutsional hisobdorlikni ta'minlash uchun raqamlashtirish, integratsiyalashgan nazorat va ochiq ma'lumotlar infratuzilmasini shakllantirish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab bermoqda.

O'zbekiston uchun moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni institutsional asosda takomillashtirish masalasi davlat boshqaruvini modernizatsiya qilishga qaratilgan so'nggi islohotlar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son farmonida: "Vazirlar Mahkamasi 2026-yildan boshlab har chorakda yirik davlat korxonalarini va budjet buyurtmachilari rahbarlarining davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirish, sohada korrupsiyaviy holatlarni bartaraf etish bo'yicha hisobotlarini tanqidiy muhokama qilib borish amaliyotini yo'lga qo'ysin"², - deb belgilangan. Mazkur institutsional yondashuv davlat moliyasini boshqarish jarayonida shaffoflik, jamoatchilik nazorati va hisobdorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, moliya tizimida hisobdorlik va ochiqlikni raqamlashtirish asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amaliy va strategik jihatdan zarur yo'nalish sifatida chuqur o'rganish dolzarb hisoblanadi.

¹ 2025 International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank / Radical Debt Transparency. <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099439106192540687/pdf/IDU-a86e3bb4-3446-4716-9131-085141b81950.pdf>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son "Davlat xaridlari tizimida raqobat muhiti va shaffoflikni ta'minlash bo'yicha navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmon

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-71-son “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2025-yil 25-iyuldagi PF-117-son “Davlat organlari va tashkilotlarda ijro intizomini yanada mustahkamlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 19-avgustdagi PF-138-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2025-yil 15-sentyabrdagi PQ-282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi 446-son “2025 – 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Moliya tizimini institutsional mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy masalalari xorijlik iqtisodchi olimlar D.North, J.Stiglitz, A.Florini, E.Hendriksen, S.Sipahutar, K.Adeusi, E.Putranti, M.Lyezia, S.Kapaya³, MDH olimlaridan N.Zotikov, I.Urusova, A.Tixonov, I.Yujefalchik, I.Chugunov, V.Kornivskaya, V.Muntiyon, S.Akvanno⁴ tomonidan tadqiq etilgan.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.S.Malikov, N.X.Haydarov, S.K.Xudoykulov, A.B.Allakuliyev, U.U.Pardayev, B.T.Turabov,

³ North, D.C. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press, Cambridge, UK.; Stiglitz, J.E. (1999). *Transparency in government*. *The World Bank Research Observer*, 11(2), 163–184.; Florini, A. (2007). *The Right to Know: Transparency for an Open World*. Columbia University Press, New York.; Hendriksen, E.S., & Breda, M.F. van. (1992). *Accounting Theory* (5th ed.). Irwin/McGraw-Hill, Boston, MA.; Sipahutar, S., Fadilla, N., Nadapdap, R., Nabila, S., & Supraja, G. (2025). *The Effect of Transparency And Accountability on The Quality of Public Financial Reports*. *Jurnal Ekonomi, Manajemen, Akuntansi dan Keuangan*.; Adeusi, K., Jejenywa, T., & Jejenywa, T. (2024). *Advancing financial transparency and ethical governance: innovative cost management and accountability in higher education and industry*. *International Journal of Management & Entrepreneurship Research*.; Putranti, E. (2023). *Transparency and accountability in the management of nonprofit organization finances*. *Diversity. Logic Journal Multidisciplinary*. <https://doi.org/10.61543/div.v2i1.73>. Lyezia, M., & Kapaya, S. (2024). *Influence of Transparency and Accountability on Public Sector Financial Performance: Evidence from Tanzania*. *Journal of Economics, Management and Trade*.

⁴ Zotikov, N., & Urusova, I. (2023). *Mestnye byudjety: doxody, mejbyudjetnye transferty, dolgovye obyazatelstva*. *Vestnik of Volga State University of Technology Economics and Management*.; Tikhonov, A., & Yuzefalchik, I. (2021). *Digitalization of the monetary-credit system: institutional and regulative aspects*. *Russian Journal of Economics and Law*.; Chugunov, I., Makogon, V., & Markuts, Y. (2021). *Institutional transformations of the public finance system*. 2, 325-331. <https://doi.org/10.18371/fcaptp.v2i37.230298>.; Kornivskaya, V. (2022). *Supernational financial market regulation: contradictions of institutionalization*. *Ekonomična teoriâ*. <https://doi.org/10.15407/etet2022.01.071>.; Muntiyon, V. (2022). *Ensuring the economic security of the CIS states in the conditions of economic war*. *National Security and Strategic Planning*. <https://doi.org/10.37468/2307-1400-2022-2-42-53>.; Aquanno, S. (2020). *Institutional Power and the Risk of Finance*. *New Political Science*, 42, 139 — 154. <https://doi.org/10.1080/07393148.2020.1773727>.

Q.A.Abduraxmonov, X.S.Akbarova⁵ ilmiy ishlarida davlat moliyasida shaffoflikni ta'minlash, moliyaviy ma'lumotlarni ochiq taqdim etish, budget xarajatlari samaradorligini baholash va raqamlashtirish jarayonlarining moliyaviy boshqaruvga ta'siri masalalari ham tadqiq etilgan. Biroq ushbu tadqiqotlar ko'proq soliq siyosati, budget tizimi yoki moliyaviy nazoratning alohida elementlariga bag'ishlangan bo'lib, moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni raqamlashtirish asosida institutsional kompleks mexanizm sifatida shakllantirish masalasi yetarli darajada chuqur va tizimli o'rganilmagan.

Shu nuqtai nazardan, moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashda raqamli texnologiyalar, ichki nazorat, audit va jamoatchilik ishtirokini integratsiyalash asosida institutsional mexanizmlarni takomillashtirishga qaratilgan mazkur tadqiqot ilmiy jihatdan dolzarb bo'lib, mavjud ilmiy ishlanmalarni to'ldirishga hamda yangi uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Milliy iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish tizimi transformatsiyasining uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O'zbekiston moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, ochiq ma'lumotlar va ommaviy hisobotlar mexanizmlari asosida hisobdorlik-shaffoflik institutini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"moliyaviy hisobdorlik" va "moliyaviy shaffoflik" tushunchalarini turli nazariy yondashuvlar asosida tizimlashtirish, ularning moliya tizimidagi institutsional xususiyatlarini aniqlash;

xalqaro amaliyotdagi moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni oshirishning yuqori samara beruvchi mexanizmlarini o'rganish;

O'zbekiston moliya tizimidagi raqamli islohotlarning hisobdorlikka ta'sirini institutsional qiyosiy tahlil qilish;

milliy indikatorlar hamda xalqaro indekslar dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish;

⁵ Malikov T.S., Haydarov N.X. Moliya: umumdavlat moliyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2009. -556 b.; Xudoykulov S.K. Soliq tushumlarini prognoz qilish metodologiyasini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. – T., 2019. 77 b.; A.B.Allakuliyev. O'rta muddatga mo'ljallangan byudjetlashtirishni milliy iqtisodiyotga joriy etishning metodologik asoslari. i.f.d. diss. avtoreferati. – T., 2022 y, 51 b.; Pardayev Umidjon Uralovich. Davlat byudjeti shaffofligini ta'minlashda byudjet ochiqligi indeksida (open budget index) ijobiy baholanishning samarali mexanizmi. Scientific Journal of "International Finance & Accounting" Issue 6, December 2022.; Turabov Baxodir To'xtamishovich. O'zbekiston Respublikasida davlat moliyaviy nazoratini takomillashtirish. i.f.d. diss. avtoreferati. – T., 2023 y, 66 b.; Abduraxmanov Kaxramon Abdumajitovich. Byudjet tashkilotlarini moliyalashtirish va mablag'larni maqsadli sarflanishi nazorati samaradorligini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024. 56 b. Akbarova Xamidaxon Solijon qizi. Xalqaro byudjet hamkorlik tashkiloti (international budget partnership)ning "byudjet ochiqligi indeksi" (open budget index). O'zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o'rnini yaxshilash muammolari: nazariya, amaliyot va strategiya' mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 23.11.2023. 634-636.;

raqamli hisobot tizimlarini integratsiyalash asosida hisobdorlikni oshirish uchun yagona institutsional-raqamli muhit konsepsiyasi va amaliy mexanizmini ishlab chiqish;

moliyaviy ma'lumotlarni ochiqlash va jamoatchilikka hisob berishni kuchaytirish uchun normativ-tashkiliy jihatdan takomillashtirilgan takliflarini ishlab chiqish;

hisobdorlik va shaffoflik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash maqsadida huquqiy va institutsional yondashuvlarni asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash, ularning samaradorligini baholash hamda takomillashtirishning nazariy, amaliy va uslubiy asoslarini rivojlantirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda dialektik yondashuv, tahlil va sintez, tizimli tahlil, institutsional yondashuv, qiyosiy tahlil, indikatorlar asosida reyting baholash, statistik tahlil hamda funksional-dinamik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda xavflarni kamaytirish, faoliyatning qonunchilikka muvofiqligi, tejamkorligi, samaradorligi, hisobdorligi, ochiqligi va shaffofligini ta'minlashga qaratilgan rahbariyat va xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tartiblar, jarayonlar hamda mexanizmlarning kompleks tizimi orqali ichki nazorat elementlarini yagona metodik yondashuv asosida tashkil etish taklifi asoslangan;

asosiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni bajarish uchun mas'ul o'rta va quyi bo'g'in xodimlaridan iborat "operatsion funksiyalar", xavflarni boshqarish, inspeksiya va muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan (komplayens) boshqaruv va nazoratni qo'llab-quvvatlovchi "maxsus funksiyalar" hamda nazorat va boshqaruv tizimlarining samaradorligini mustaqil baholashni ta'minlaydigan ichki auditni o'zaro uyg'unlashtirish orqali davlat organlarida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash taklifi asoslangan;

ichki nazorat tizimining yaxlit normativ-huquqiy hujjatlar va uslubiy yo'riqnomalar asosida tashkil etilishida standartlashtirishni ta'minlash orqali sifatli axborotlardan foydalanish va kommunikatsiyani yaxshilash hamda ishonchli muvofiqlik va hisobdorlik tizimlarini takomillashtirish taklifi asoslangan;

qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik takliflarining inobatga olinishi, ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanishi hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikning yo'lga qo'yilishi orqali respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organida nazorat muhiti asosiy elementlari tarkibida halollik tamoyili va odob-axloq qoidalariga amal qilinishi mexanizmini takomillashtirish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida moliyaviy resurslardan samarali foydalanish va hisobdorlikni kuchaytirish maqsadida ichki nazorat tizimini risklarni boshqarish, qonuniylik, samaradorlik va shaffoflik mezonlari asosida tashkil etishning uslubiy-tashkiliy mexanizmi taklif etilgan;

davlat organlarida hisobdorlik va shaffoflikni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida operatsion, komplayens va risk-menejment funksiyalari

hamda ichki audit faoliyatini o‘zaro integratsiyalashga qaratilgan uch bosqichli nazorat modeli taklif etildi va uni joriy etish orqali funksional uyg‘unlikni ta‘minlash imkoniyatlari ilmiy-amaliy jihatdan asoslantirilgan;

ichki nazorat jarayonlarini yagona normativ-huquqiy hujjatlar va uslubiy yo‘riqnomalar asosida standartlashtirish, ma‘lumotlar almashinuvini raqamli formatlarda tashkil etish hamda hisobot jarayonlarini avtomatlashtirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar kompleksi taklif etilgan;

qaror qabul qilish jarayoniga jamoatchilik ishtirokini integratsiya qilish, moliyaviy ma‘lumotlarni ochiq formatlarda e‘lon qilish va nazorat muhitida halollik tamoyillariga rioya etishni ta‘minlovchi tashkiliy-institutsional mexanizm taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot ishining ishonchliligi uni tayyorlash jarayonida O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Soliq qo‘mitasi, O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi hamda davlat moliyasini boshqarishga oid rasmiy axborot tizimlari va ochiq ma‘lumotlar bazalarining statistik va tahliliy materiallaridan foydalanilganligi bilan ta‘minlanadi. Shuningdek, tadqiqotda moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni baholashga doir xalqaro metodik yondashuvlar, institutsional va qiyosiy tahlil, dinamik baholash, integral indikatorlar usullari hamda raqamlashtirish jarayonlarining ta‘sirini funksional bog‘liqlik asosida o‘rganish kabi ilmiy asoslangan usullar qo‘llanilganligi, keltirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalarining O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ilgari surilgan nazariy xulosa va takliflardan moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni raqamlashtirish sharoitida baholashga oid nazariy yondashuvlarni tizimlashtirish va ularning institutsional mazmunini aniqlash, ochiq ma‘lumotlar siyosati va fiskal natijalar o‘rtasidagi institutsional bog‘liqlikni empirik tahlil qilish orqali davlat moliyasini boshqarish samaradorligini baholashning yangi uslubiy yondashuvlarini ilmiy muomalaga kiritishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi xulosa va tavsiyalardan davlat moliyasini boshqarish, raqamli hisobot tizimlarini integratsiyalash, ma‘lumotlarni standartlashtirish va ochiq ma‘lumotlar infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan takliflardan davlat organlarida hisobdorlik va shaffoflik mexanizmlarini mustahkamlash, tadqiqot natijalaridan davlat boshqaruvi organlari, nazorat institutlari, ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta‘lim tashkilotlarida moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy va tashkiliy qarorlarni ishlab chiqishda metodik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Moliya tizimini institutsional mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda xavflarni kamaytirish, faoliyatning qonunchilikka muvofiqligi, tejamkorligi, samaradorligi, hisobdorligi, ochiqligi va shaffofligini ta‘minlashga

qaratilgan rahbariyat va xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tartiblar, jarayonlar hamda mexanizmlarning kompleks tizimi orqali ichki nazorat elementlarini yagona metodik yondashuv asosida tashkil etish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi "2025 - 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 446-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 04/53-2-29190-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida ichki nazorat elementlarini yagona metodik yondashuv asosida tashkil etish orqali moliyaviy operatsiyalarning shaffofligi va hisobdorlik darajasini aniq mezonlar asosida baholash amaliyoti shakllantirilgan;

asosiy faoliyat bilan bog'liq vazifalarni bajarish uchun mas'ul o'rta va quyi bo'g'in xodimlaridan iborat "operatsion funksiyalar", xavflarni boshqarish, inspeksiya va muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan (komplayens) boshqaruv va nazoratni qo'llab-quvvatlovchi "maxsus funksiyalar" hamda nazorat va boshqaruv tizimlarining samaradorligini mustaqil baholashni ta'minlaydigan ichki auditni o'zaro uyg'unlashtirish orqali davlat organlarida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi "2025 - 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 446-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 04/53-2-29190-sonli ma'lumotnomasi). Taklif natijasida davlat organlarida xavflarni boshqarish, muvofiqlikni ta'minlash va nazoratning mustaqil baholanishi o'rtasida funksional uyg'unlik ta'minlanib, hisobdorlikning institutsional barqarorligi oshirilgan;

ichki nazorat tizimining yaxlit normativ-huquqiy hujjatlar va uslubiy yo'riqnomalar asosida tashkil etilishida standartlashtirishni ta'minlash orqali sifatli axborotlardan foydalanish va kommunikatsiyani yaxshilash hamda ishonchli muvofiqlik va hisobdorlik tizimlarini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi "2025 - 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 446-son qarorida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 04/53-2-29190-sonli ma'lumotnomasi). Natijada axborot almashinuvining standartlashuv darajasi oshirilib, ishonchli ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari kengaydi hamda muvofiqlik va hisobdorlik jarayonlarida qaror qabul qilish sifati yaxshilangan;

qaror qabul qilish jarayonida jamoatchilik takliflarining inobatga olinishi, ochiqlik va shaffoflikning ta'minlanishi hamda jamoatchilik oldida hisobdorlikning yo'lga qo'yilishi orqali respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organida nazorat muhiti asosiy elementlari tarkibida halollik tamoyili va odob-axloq qoidalariga amal qilinishi mexanizmini takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-iyuldagi "2025 - 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 446-son qarorida o'z aksini topgan

(O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2025-yil 25-dekabrda 04/53-2-29190-sonli ma’lumotnomasi). Natijada respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ochiqlik va shaffoflikning amaliy mexanizmlari kuchaytirilib, nazorat muhitida halollik tamoyili va odob-axloq qoidalariga rioya etish darajasi oshishiga xizmat qiluvchi tashkiliy shart-sharoitlar shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 2 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokama qilingan va ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta, shundan, nufuzli xorijiy jurnallarda 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 136 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikning nazariy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik tushunchasi, nazariy yondashuv va institutsional o‘ziga xosliklar, institutsional rivojlanishda raqamlashtirishning nazariy modellari va moliya tizimidagi ahamiyati, xalqaro tajribada moliyaviy hisobdorlikni oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha tadqiqot olib borilgan.


Bugungi kunda davlat sektori, xususiy biznes va nodavlat tashkilotlar faoliyatida moliyaviy ma’lumotlarning to‘g‘ri, aniq va o‘z vaqtida taqdim etilishi nafaqat ichki bozor ishtirokchilari, balki xalqaro hamjamiyat uchun ham ishonch va barqarorlikning asosiy mezoni sifatida namoyon bo‘lmoqda. Moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikning yetarli darajada ta’minlanishi iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishi, investitsiya muhitining yaxshilanishi, korrupsiya xavfining pasayishi va ijtimoiy ishonchning oshishiga xizmat qiladi. Xususan, moliyaviy hisobdorlik moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, ularning manbalari va sarflanishi haqidagi aniq axborotni manfaatdor tomonlarga taqdim etish majburiyati sifatida ta’riflansa, moliyaviy shaffoflik esa mazkur axborotning ochiqligi, tekshirish imkoniyati va keng jamoatchilik uchun tushunarli shaklda taqdim etilishi bilan tavsiflanadi. Shu ma’noda, hisobdorlik va shaffoflik o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalar bo‘lib, ular birgalikda samarali moliyaviy boshqaruvning zaminini tashkil etadi.

Demak, moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik bu faqat hisobot topshirish shartlari emas, balki uzoq muddatli barqarorlik, samarali boshqaruv, jamiyat ishonchi va iqtisodiy o‘shishning asosiy kafolati hisoblanadi degan xulosa shakllanadi. Moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik bo‘yicha nazariy yondashuvlar tadqiqotlarda quyidagicha asoslanadi (1-rasm):



1-rasm. Moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik bo‘yicha nazariy yondashuvlar⁶

Moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikning institutsional o‘ziga xosliklari bo‘yicha tadqiqotlar quyidagicha natijalarni ko‘rsatgan (2-rasm):



2-rasm. Moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikning institutsional o‘ziga xosliklari⁷

Yuqorida keltirilgan nazariy yondashuvlar va institutsional xususiyatlar tahlili moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni ta‘minlashda ichki nazorat mexanizmlarining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Amalda mazkur tamoyillar faqat hisobot berish yoki axborotni ochiqdash bilan cheklanmay, ularni kafolatlovchi tashkiliy-institutsional tartiblar, boshqaruv jarayonlari va risklarni boshqarish

⁶ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

⁷ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

mexanizmlarining uyg'un faoliyatini talab etadi. Shu jihatdan, ichki nazorat tizimi davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligi, resurslardan oqilona foydalanish, vazifalarning maqsadli ijrosi va manfaatdor tomonlar oldida hisobdorlikni ta'minlovchi bazaviy institutsional element sifatida namoyon bo'ladi.

Shu nuqtai nazardan, bizning fikrimizcha, "ichki nazorat tizimi" tushunchasining iqtisodiy mazmuni quyidagicha ta'riflanishi maqsadga muvofiq: **"ichki nazorat tizimi"** - respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish jarayonida xavflarni kamaytirish, faoliyatning qonunchilikka muvofiqligi, tejamkorligi va samaradorligini ta'minlash, shuningdek hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflikni kafolatlashga qaratilgan rahbariyat va xodimlar tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tartiblar, jarayonlar hamda mexanizmlarning kompleks tizimidir. Bunday yondashuv ichki nazoratni faqat tekshiruv yoki nazorat amaliyoti sifatida emas, balki risklarni boshqarish, muvofiqlikni ta'minlash va institutsional samaradorlikni oshirishga xizmat qiluvchi integral boshqaruv mexanizmi sifatida qarash imkonini beradi. Natijada moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashning nazariy asoslari kengaytirilib, davlat boshqaruvida ishonch va barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi konseptual yondashuv shakllanadi.

PEFA baholash tizimi davlat moliyasini boshqarishda hisobdorlik, shaffoflik va samaradorlik darajasini aniqlashda eng ko'p qo'llaniladigan xalqaro instrumentlardan biri hisoblanadi. Finlyandiya, Kanada, Janubiy Koreya, Avstraliya va Shvetsiya kabi yuqori ballga ega davlatlar tajribasi moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashda bir qator umumiy institutsional xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi.

1-jadval

Xalqaro PEFA ballari bo'yicha yuqori natijalar (100 ballik tizim)⁸

Davlat	O'rtacha PEFA balli (100 dan)
Finlyandiya	92
Kanada	90
Janubiy Koreya	88
Avstraliya	87
Shvetsiya	86

Birinchiidan, budjet ma'lumotlari faqat yillik hisobot ko'rinishida emas, balki choraklik va oylik shakllarda ham e'lon qilinadi. Bu iqtisodiy sharoitdagi o'zgarishlarga manfaatdor tomonlar va jamoatchilikning o'z vaqtida reaksiya bildirishi uchun shart-sharoit yaratadi. Ikkinchiidan, davlat audit tizimi to'liq institutsional mustaqillikka ega bo'lib, faoliyati bevosita parlament oldida hisobdor hisoblanadi. Bu moliyaviy ma'lumotlarning haqqoniyligi va ishonchliligini kafolatlaydi. Uchinchiidan, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish hisobotlarni real-time rejimida yangilab borish imkonini beradi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda islohotlar amalga oshirilib, "Ochiq budjet" portali, davlat xaridlari elektron tizimi va Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga

⁸ Public Expenditure and Financial Accountability (PEFA) Secretariat. "PEFA Assessments Database", 2023 yil. <https://www.pefa.org/resources>

(IFRS) bosqichma-bosqich o'tish jarayoni yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, Ochiq budget indeksi bo'yicha ko'rsatkich hozirda 45 ballni tashkil etib, xalqaro o'rtacha darajadan past qolmoqda. Institutsional tahlilga ko'ra, asosiy muammolar quyidagilardan iborat: ma'lumotlar ko'p hollarda tahlilga qulay bo'lmagan formatda (PDF, skanerlangan hujjatlar) taqdim etiladi, mustaqil audit organlarining vakolat va mustaqilligi yetarli emas, jamoatchilik ishtirokining institutsional asoslari kuchsiz.

2-jadval

Turli mamlakatlarda raqamli platformalar orqali moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik tajribasi⁹

Mamlakat	Asosiy ustunliklar	Natijalar	Shart-sharoitlar
Estoniya	Raqamli ID va interoperabellik; moliyaviy ma'lumot boshqa sektorlar bilan bog'lanadi	Raqamli tizim YAIMning taxminan 2% iqtisodiy samara bergan	Bu orqali moliyaviy ma'lumotlar sog'liqni saqlash, kadastr va litsenziya tizimlari bilan bog'lanib, audit keng qamrovli darajada amalga oshiriladi.
Koreya (KONEPS)	E'londan to to'lovgacha bo'lgan barcha bosqichlarni qamrab oladi	Shu tufayli davlat xaridlari bozorida raqobat oshgan va milliardlab dollar tejamkorlikka erishilgan	Majburiy nashr standartlari va avtomatik tekshiruv qoidalari
Braziliya	"Portal da Transparência" orqali jamoatchilik nazorati	Jurnalistlar, NNTlar va oddiy fuqarolar davlat xarajatlarini kuzatib, mustaqil audit o'tkazish imkoniyatiga ega	Fuqarolarning shikoyat qilish va davlat organlariga fikr-mulohaza bildirish imkoniyatlari
Chili, Kolumbiya	Ochiq kontrakting standartlari (mashina o'quv formatlari, API)	Narxlarni pasayishi va ishtirokchilar soni ko'payishiga xizmat qilgan	Tenderlar ma'lumotini qayta ishlanuvchi formatda taqdim etish

Xalqaro tajriba tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar moliyaviy hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlashning universal vositasi sifatida xizmat qilsa-da, ularning samaradorligi davlatning institutsional infratuzilmasi, huquqiy bazasi va jamoatchilik ishtirokining ta'minlanishiga bevosita bog'liq. Estoniyaning interoperabellikka asoslangan yagona ma'lumot almashinuvi tizimi, Koreyaning to'liq raqamli xarid zanjiri, Braziliyaning jamoatchilik nazorati platformasi hamda Chili va Kolumbiyaning ochiq kontrakting standartlari turli modellar orqali bir xil natijaga:

⁹ Tadqiqotlar asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

xarajatlarning qisqarishi, raqobatning kuchayishi va korrupsiya xavflarining kamayishiga erishganini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikning hozirgi holati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston moliya tizimida raqamli islohotlar va ularning hisobdorlikka ta'siri, raqamlashtirish sharoitida moliyaviy hisobdorlik va shaffoflik natijalarini tahliliy baholash, moliyaviy shaffoflikni ta'minlashda ma'lumot ochiqligi va ommaviy hisobotlar mexanizmlarining samaradorligi o'rganilgan.

So'nggi yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimida hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash masalasi nafaqat moliyaviy barqarorlikni saqlash, balki jamoatchilik ishonchini mustahkamlash nuqtai nazaridan ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekistonda ham oxirgi o‘n yillikda davlat boshqaruvi tizimini raqamlashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. O‘zbekistonda davlat moliyasini raqamlashtirish jarayoni tasodifiy yoki qisman amalga oshirilgan islohot emas, balki muayyan institutsional strategiyaga asoslangan tizimli siyosat hisoblanadi. Xususan, davlat boshqaruvini modernizatsiya qilish, ochiqlikni ta'minlash va korrupsiyaviy xavflarni kamaytirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar moliya tizimida raqamli yechimlarni joriy etish uchun mustahkam huquqiy zamin yaratdi.

O‘zbekistonda davlat moliyasini boshqarish tizimida raqamli islohotlar boshlanishidan oldin hisobdorlik va moliyaviy nazorat amaliyoti asosan an'anaviy va qo'lbola mexanizmlar orqali amalga oshirilgan. Budget mablag'larining rejalashtirilishi, taqsimlanishi va ijrosi jarayonlarida axborotlar ko'p hollarda qog'oz shaklida yuritilib, ularning yig'ilishi, qayta ishlanishi va tahlil qilinishi katta vaqt va resurs talab etgan. Bu esa davlat moliyasida samaradorlikni baholash va o'z vaqtida boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini sezilarli darajada cheklab qo'ygan.

Raqamlashtirishdan oldingi davrda moliyaviy hisobdorlik tizimi, asosan, natijaga yo'naltirilgan bo'lib, nazorat tadbirlari ko'p hollarda mablag'lar sarflangandan keyin amalga oshirilgan. Bunday “keyingi nazorat” amaliyotida qoidabuzarliklar, noqonuniy xarajatlar yoki samarasiz qarorlar faqat muayyan vaqt o'tgandan so'ng aniqlangan. Shu sababli budget mablag'larini o'z vaqtida to'xtatish yoki yo'nalishini o'zgartirish imkoniyati cheklangan, moliyaviy yo'qotishlarning oldini olish esa qiyinlashgan.

Moliya tizimida hisobdorlikning past darajada bo'lishiga olib kelgan yana bir muhim omil idoralararo axborot almashinuvining tizimli yo'lga qo'yilmagani edi. Budget tashkilotlari, soliq organlari, davlat xaridlari bilan shug'ullanuvchi tuzilmalar va nazorat organlari o'z faoliyatini ko'p hollarda alohida axborot maydonlarida amalga oshirgan. Ma'lumotlar bir-biri bilan avtomatik tarzda bog'lanmagani sababli, moliyaviy operatsiyalarni to'liq qamrab oluvchi yagona tasavvurni shakllantirish imkoniyati mavjud bo'lmagan. Bu holat moliyaviy qarorlarning ochiqligi va izchilligini pasaytirib, hisobdorlikning institutsional zaiflashuviga olib kelgan.

Raqamli islohotlarning davlat moliyasida hisobdorlikka ta'sirini baholashda faqat alohida platformalar yoki texnik yechimlarni tahlil qilish yetarli emas. Chunki raqamlashtirish, eng avvalo, hisobdorlikning mazmuni, shakli va amalga oshirish mexanizmlarini o'zgartiradi. Shu sababli, raqamli islohotlar natijasida hisobdorlik qanday institutsional transformatsiyaga uchraganini aniqlash uchun uning

raqamlashtirishdan oldingi va keyingi holatini qiyosiy tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

3-jadval

Davlat moliyasida hisobdorlik mexanizmlarining institutsional qiyosiy tahlili¹⁰

Ko'rsatkichlar	Raqamlashtirishdan oldin	Raqamlashtirishdan keyin
Hisobot yuritish shakli	Qog'oz	Elektron, avtomatlashtirilgan
Ma'lumotlarni taqdim etish	Kechiktirilgan	Real vaqtga yaqin
Nazorat usuli	Keyingi nazorat	Jarayonda nazorat
Ma'lumotlar integratsiyasi	Parchalangan	Yagona raqamli muhit
Inson omilining ta'siri	Yuqori	Kamaytirilgan
Axborotning standartlashuvi	Past	Yuqori
Jamoatchilik uchun ochiqlik	Cheklangan	Kengaytirilgan
Hisobdorlik subyekti	Asosan nazorat organlari	Davlat organlari va jamoatchilik

Keltirilgan qiyosiy tahlil raqamli islohotlar natijasida hisobdorlik mexanizmlari sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatadi. Biroq mazkur institutsional o'zgarishlarning amalda qay darajada joriy etilganini, ularning qamrovi va dinamikasini aniqlash uchun raqamli platformalarning real ko'rsatkichlarini tahlil qilish zarur. Bu tahlil raqamli islohotlarning deklarativ emas, balki amaliy natijalarga ega ekanini isbotlash imkonini beradi.

Yuqoridagi konseptual tahlil raqamli islohotlarning davlat moliyasida hisobdorlikni kuchaytirish uchun institutsional asos yaratganini ko'rsatadi. Biroq mazkur o'zgarishlarning qay darajada amalga oshirilgani va ularning qamrovi qanday kengayganini aniqlash uchun raqamli platformalarning amaldagi joriy etilish dinamikasini tahlil qilish zarur. Shu nuqtai nazardan, quyida 2021–2025-yillarda O'zbekiston davlat moliyasida asosiy raqamli platformalarning qamrov ko'rsatkichlari tahlil qilinadi (4-jadval).

4-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, 2021–2025-yillar davomida O'zbekiston davlat moliyasida raqamli platformalar qamrovi izchil ravishda kengaygan. Barcha asosiy yo'nalishlarda qamrovning 85–100 foizga yetishi raqamli islohotlar deklarativ emas, balki amaliy tusga ega ekanini tasdiqlaydi. Bu esa hisobdorlikni ta'minlashda raqamli texnologiyalar institutsional mexanizm sifatida mustahkam o'rin egallaganini anglatadi.

¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirilgan

Davlat moliyasida raqamli platformalar qamrovi tahlili¹¹, foizda

Yil	openbudget.uz	GFMIS	E-Procurement	E-hisobot	Elektron soliq tizimi
	%	%	%	%	%
2021	66	78	70	60	63
2022	76	80	73	68	69
2023	80	85	78	75	75
2024	90	95	85	80	85
2025	100	100	100	85	90

Izoh: **GFMIS**-davlat moliyasini boshqarishga oid asosiy jarayonlarni yagona raqamli muhitda integratsiyalovchi axborot tizimi. **E-Procurement**- elektron davlat xaridlari tizimi.

Raqamli ma'muriyatchilikning davlat moliyasiga ta'sirini baholashda eng muhim mezonlardan biri soliq va budget tushumlarining dinamikasi hisoblanadi. Soliq ma'muriyatchiligida elektron xizmatlarning keng joriy etilishi, onlayn hisob-kitob tizimlarining ishga tushirilishi va raqamli monitoring mexanizmlarining kuchaytirilishi soliq bazasini kengaytirish hamda tushumlarning barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Soliq va budget tushumlarining raqamlashtirishdan keyingi o'sishi tahlili¹²

Yil	Soliq tushumlari (trln.so'm)	Elektron to'lov ulushi* (%)	Soliq qarzi (trln.so'm)
2021	128	88%	3,1
2022	148,5	91%	4,3
2023	165,9	93%	6,2
2024	199,4	95%	6,7
2025	247,8	96%	8,4

* mobil ilovalar va internet banking orqali to'langan to'lovlar miqdori

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarni nisbiy va dinamik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilish raqamli ma'muriyatchilikning fiskal natijalarga ta'sirini yanada aniqroq baholash imkonini beradi. 2021–2025-yillar oralig'ida soliq tushumlari 128 trln.so'mdan 247,8 trln.so'mgacha oshgan bo'lib, umumiy o'sish hajmi 119,8 trln.so'mni tashkil etdi. Bu esa tahlil qilinayotgan davrda soliq tushumlari qariyb 93,6 %ga oshganini ko'rsatadi.

Shu tariqa, 5-jadval natijalari elektron to'lov ulushining yuqori darajaga yetishi va soliq tushumlarining barqaror o'sishi raqamli ma'muriyatchilikning fiskal samaradorligini oshirayotganini ko'rsatdi. Biroq elektron to'lov ulushining o'sishi faqat soliq tizimidagi raqamlashtirish bilan emas, balki iqtisodiyotdagi to'lov infratuzilmasi va moliyaviy xizmatlardan foydalanish madaniyatining o'zgarishi bilan ham izohlanadi. Shu sababli, elektron to'lovlarning kengayishiga xizmat qilayotgan

¹¹ Muallif tomonidan shakllantirilgan

¹² Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

makro-infratuzilmaviy omillarni ham alohida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

6-jadval

Raqamli to‘lov infratuzilmasi rivojlanishi va tranzaksiya muhitining o‘zgarishi¹³

Ko‘rsatkich	2022-yil	2024-yil	2025-yil
Pul massasidagi naqd pul ulushi (%)	22,3	20,7	19,2
Masofaviy bank xizmatlari tizimlarida ro‘yxatdan o‘tgan mijozlar (akkauntlar) soni (mln.)	36,5	57,0	65,7

6-jadvaldagi ko‘rsatkichlar 5-jadvalda qayd etilgan elektron to‘lov ulushining o‘rishini infratuzilmaviy nuqtai nazardan asoslab beradi. Xususan, pul massasidagi naqd pul ulushining 2022-yildagi 22,3 foizdan 2025-yilda 19,2 foizgacha pasayishi iqtisodiyotda hisob-kitoblar kanallari bosqichma-bosqich raqamli muhitga ko‘chayotganini anglatadi. Shu bilan birga, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining 36,5 mln.dan 65,7 mln.gacha o‘shishi raqamli to‘lov kanallarining ommalashganini va aholi hamda biznesning raqamli moliyaviy xizmatlarga institutsional moslashuvi yuqori ekanini ko‘rsatadi.

Davlat moliyasida hisobdorlikning mustahkamlanishi faqat fiskal ko‘rsatkichlar bilan emas, balki moliyaviy axborotlarning jamoatchilik uchun ochiqligi, ma‘lumotlarning muntazam yangilanishi va davlat organlari faoliyati yuzasidan tashqi nazorat imkoniyatlarining kengayishi orqali ham namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, quyida davlat moliya organlarining ochiq ma‘lumotlar portalidagi faolligi va jamoatchilik bilan axborot almashinuvi mexanizmlari tahlil qilinadi.

7-jadval

Davlat moliya organlarining ochiq ma‘lumot portalida faolligi¹⁴

Tashkilot nomi	Ochiq ma‘lumotlar soni	Yangilanish chastotasi	Jamoatchilik murojaatlari
*Iqtisodiyot va moliya vazirligi	126	Oylik/choraklik/yillik	300 000+
Soliq qo‘mitasi	43	Oylik/choraklik/yillik	100 000+

* Vazirlik huzuridagi tashkilotlarning ma‘lumotlari ham inobatga olingan.

7-jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar davlat moliya organlari tomonidan taqdim etilayotgan ochiq ma‘lumotlar hajmi va ularning yangilanish amaliyotining shakllanganini ko‘rsatadi. Xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 126 ta ochiq ma‘lumotlar to‘plamining joylashtirilishi va ularning muntazam ravishda oylik, choraklik va yillik tarzda yangilanib borilishi davlat moliyaviy boshqaruvida axborot ochiqligi institutsionallashganini anglatadi. Ma‘lumotlarning tizimli yangilanishi ularning dolzarbligi va ishonchligini Soliq qo‘mitasi tomonidan 43 ta ochiq

¹³ Markaziy bank ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

¹⁴ Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Soliq qo‘mitasi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

ma'lumotlar to'plamining taqdim etilishi soliq ma'muriyatchiligida ham axborot ochiqligi siyosatining amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Mazkur jihatni chuqurroq baholash maqsadida davlat boshqaruvini raqamlashtirish va ma'lumotlar ochiqligi sohasida O'zbekistonning xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlarini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarning tahlili davlat moliyasida shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar natijalarini xalqaro mezonlar asosida baholash, shuningdek, milliy axborot ochiqligi siyosatining institutsional samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

8-jadval

O'zbekistonda raqamli davlat boshqaruvi va ma'lumot ochiqligi indikatorlari dinamikasi¹⁵

Ko'rsatkich	2020-yil	2022-yil	2024-yil
E-Government Development Index (EGDI)	0,72	0,7265	0,7999
EGDI bo'yicha o'rin	87	69	63
Open Data Inventory (ODIN) reytingi o'рни	-	40	-
ODIN balli	63	66	70 (keyingi baholashda)

Keltirilgan 8-jadvalda O'zbekistonning davlat boshqaruvini raqamlashtirish va axborot ochiqligi sohasidagi xalqaro baholash ko'rsatkichlari dinamikasi aks ettirilgan. Ushbu indikatorlar mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlarining institutsional samaradorligini qiyosiy mezonlar asosida baholash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **“Moliya tizimida hisobdorlik va shaffoflikni raqamlashtirish asosida takomillashtirish yo'nalishlari”** deb nomlangan uchinchi bobida raqamli hisobot tizimlarini integratsiyalash va hisobdorlikni oshirish mexanizmlari, moliyaviy ma'lumotlarni ochiqdash va jamoatchilikka hisob berishni kuchaytirish, hisobdorlik va shaffoflik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan huquqiy va institutsional yondashuvlar bo'yicha tadqiqotlar o'rganilgan.

